

Date: 23rd January-2025

KIMYO FANI DARSLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARIDAN
FOYDALANISH

Nurxonova Sayyoraxon Mahmudovna

Andijon viloyati Shahrixon tumani

1-son kasb-hunar kolleji kimyo fani o'qituvchisi

Tel:+998889861211

Annotatsiya: Ushbu maqolada kimyo fanida “Alkanlar” mavzusini o'qitishda “Pissani tayyorla” , Assotsiatsiyalar” metodini organik kimyo fanida qo'llash usullari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Alkanlar, innovasiya, pissani tayyorla, “Assotsiatsiyalar metodi”.

Organik kimyo fani, uning nazariy asoslari va amaliy jihatlari bilan birga, o'quvchilarga kimyoviy reaksiyalarni tushunishga va turli metodlarni qo'llash orqali yangi moddalarni yaratishga imkon beradi. Ushbu fanni o'rgatishda metodlardan foydalanish, o'quvchilarga ilmiy bilimlarni chuqurroq va samarali ravishda o'zlashtirishda yordam beradi. Kimyoviy tajribalar, modellar va amaliy mashg'ulotlar orqali o'quvchilar nazariy bilimlarni hayotga tadbiq etishni o'rganadilar. Metodlar orqali o'quvchilar, masalan, reaksiyalarni boshqarish, moddalarning xususiyatlarini o'rganish va yangi formulalarni yaratish bo'yicha ko'nikmalarni rivojlantiradilar. Shuningdek, darslarda metodlarni to'g'ri qo'llash, o'quvchilarni tahlil qilish va ilmiy fikrlash qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi. Organik kimyo fanining amaliy ahamiyati metodlar yordamida yanada aniqlashadi va murakkab jarayonlarni tushunishga yordam beradi. Shunday metodlardan biri haqida to'xtalamiz: **“Pitsani tayyorla” metodi**. Ushbu metodni darsning uyga vazifani so'rash, yangi mavzuni mustahkamlash bosqichlarida foydalanish mumkin. Bu metodni qo'llamoqchi bo'lgan o'qituvchi doskaga pitsa rasmini ilib qo'yadi. O'tgan darsni takrorlash va o'quvchilarni baholash uchun “Pitsani tayyorla” metodidan foydalanish o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini orttiradi.

Metodning borish tartibi:

Guruhlarga ajratish. O'quvchilar 4 xil rangdagi qizil, sariq, yashil, ko'k kartochkalarni tanlab olishadi va 4 xil rangdagi kartochkalar qo'yilgan guruh uchun ajratilgan joyga borib o'tirishadi. Qizil kartochka qo'yilgan partaga qizil kartochkani tanlagan o'quvchilar, sariq kartochkani tanlagan o'quvchilar sariq kartochka qo'yilgan partaga borib o'tirishadi. O'quvchilarga savollar, topshiriqlar va masalalar beriladi. Buning uchun 4 ta guruhlarga 4 ta pitsa xamiri ya'ni asosi tarqatiladi va o'quvchilar har bir to'g'ri javob uchun pitsa ustiga qo'yadigan turli masalliq tarqatilishi aytiladi. Dars oxirida qaysi guruh pitsasi ustiga qancha ko'p masalliq qo'yishsa va chiroyli bezatilsa shu guruh g'olib bo'ladi.

Metodni amalga oshirish uchun 2-3 daqiqa vaqt beriladi. O'quvchilar berilgan savollarga yozganlarini qisqa va tez-tez o'qib berishlar kerak. Har bir to'g'ri javob uchun



Date: 23rd January-2025

rag'bat sifatida pitsaning masallqlaridan
beriladi.(pishloq,pomidor,bodring,ko'kat,qo'ziqorin)

Metodning ahamiyati : Bu metod o'quvchilarga nima beradi?

O'quvchilar bugungi yoki o'tgan darsni qay darajada o'zlashtirishdi?

Darsdagi ma'lumotlarni qay darajada tahlil qila olishdi?

Guruh bilan ishlash orqali kommunikativlik,o'z fikrini mustaqil bayon eta olish,nutqining rivojlanishi,do'stona muhit shakllanishi kabi holatlar kuzatiladi;


Bir-birlarini tinglab ham o'sha ma'lumotni yana bir bor esida saqlay olish va mustahkamlash imkonini beradi.

O'qituvchiga nima beradi?

☐ O'quvchilarning yodida qanday ma'lumot ko'proq qoldi-yu,qanday ma'lumot chetda qolib ketdi?

☐ Aynan qaysi ma'lumotni ular e'tiborga olishmadi?

☐ Yana nimalar ustida men ishlashim kerak? degan savollarga javob olishi mumkin bo'ladi.Ya'ni bu metod o'qituvchini ham o'z ustida ishlashga majbur qiladigan metod.



Bunda quyidagi savollar berish mumkin:

Alkanlarning nomlanishi:

1. Alkanlar nima? Ularning umumiy formulasi qanday?
2. Alkanlar qanday nomlash tizimi bo'yicha nomlanadi?
3. C1 dan C4 gacha bo'lgan alkanlar nomlari qanday?
4. C5 dan C10 gacha bo'lgan alkanlarning nomlari qanday?
5. Alkanlarda shoxlanish holatlari qanday nomlanadi?

Alkanlarning tuzilishi:

6. Alkanlar qanday tuzilishga ega bo'ladi?



Date: 23rd January-2025

7. Alkanlarning tuzilish formula va strukturasi qanday farqlanadi?
8. Alkanlarda atomlar qanday tartibda joylashadi?
9. Alkanlarning to'g'ri zanjirli va shoxli tuzilmalarini tushuntirib bering.
10. Alkanlarning bitta bog'lanishdan tashkil topgan tuzilishi haqida qanday tushuncha bor?

Alkanlarning gomologik qatori:

11. Alkanlar qanday gomologik qatorni tashkil etadi?
12. Alkanlar qaysi fizik va kimyoviy xususiyatlarga ega?
13. Alkanlarning gomologik qatorida birinchi alkan qanday bo'ladi?

Alkanlarning izomerlari:

14. Alkanlarning izomerizmi haqida gapiring.
15. Izomerlar nima? Alkanlarda izomerlash qanday bo'ladi?

N	arf	Mos termin,so'z	So'zga xos tushuncha
1	A-	ALKIN	To'yinmagan uglevodorodlar umumiy formulasi C_nH_{2n-2}
2	L-	AVUAZYE	Kislorodni kashf qilgan
3	K-	ALIY	Ishqoriy metal,tartib raqami 19,atom massasi 39,lotincha nomi potassium
4	A-	ZOT	Havo tarkibida 78% ni tashkil qiladi
5	D-	MITRIY IVANOVICH	Dmitriy Ivanovich Mendeleyev, rus kimyogari bo'lib, 1869-yilda kimyoviy elementlarning davriy jadvalini ishlab chiqdi
6	I-	ON	Zaryadlangan zarracha.musbat va manfiy bo'ladi
7	Y-	ODAT KISLOTA	HIO ₃ tarzida yoziladi,kuchsiz kislota, Yodat kislota (HIO ₃) – iodning oksidlanish darajasi +5 bo'lgan, kuchli oksidlovchi xususiyatga ega bo'lgan kimyoviy birikmadir.
8	E-	LEKTROLIT	Eritmalari yoki suyuqlanmalari elektr tokini o'tkazadigan moddalar
9	N-	ATRIY	Ishqoriy metal,tartib raqami 11,atom massasi 23,lotincha nomi sodium
10	L-	ATUN QOTISHMASI	Latun qotishmasi, asosan, mis va ruxdan tashkil topgan, korroziyaga chidamli, yaxshi plastiklikka ega va turli sanoat tarmoqlarida keng qo'llaniladigan materialdir.
11	A-	URUM	Oltinning lotincha nomi
12	R-	EZERFORD	Atomning tarkibi,tuzilishini o'rgangan.atomning planetar modelini yaratgan olim.

16. Alkanlarda izomerlashning turlari qanday?
17. Alkanlarning shoxli va to'g'ri zanjirli izomerlarini qanday ajratish mumkin?

Alkanlarning olinishi va ishlatilishi:

18. Alkanlar qanday usullar bilan olinadi va ularning ishlatilish sohalari nimalar?



Date: 23rd January-2025

19. Etil xlorid,xloroform,metil xloridning ishlatilish sohalarini ayting.
20. Alkanlarning aham,iyatini tushuntirib bering.

Assotsiatsiyalar metodi. O'quvchilar guruhlarga bo'linadi, har bir guruhga yangi mavzuni o'rganish bilan bog'liq bo'lgan so'z,termin,mavzuga oid bo'lgan tushunchalar yoki gap yozilgan plakat beriladi. Buni o'qituvchi yozib beradi marker bilan.O'quvchilar qisqa vaqt ichida taxminan 2 daqiqada berilgan so'zga mos keluvchi kimyoviy terminlar,elementlar nomini ,moddalarning nomini,olimlar nomini umuman kimyoda qo'llaniladigan so'zlarni qo'llashi kerak bo'ladi.Albatta bunda o'quvchilar yozayotgan so'zlari haqida ma'lumotga ega bo'lishi va kamida 1 ta ma'lumot og'zaki usulda aytishlari talab qilinadi.Turli guruhlarda yangi mavzuni o'rganish bilan bog'liq bo'lgan har xil so'zlar bo'lgani maqsadga muvofiqdir. **Ushbu metodning ahamiyati nimada:**

- O'quvchilar diqqatini oshiradi,darsga bo'lgan qiziqishlari ortadi
- O'tilgan ma'lumotlar takrorlanadi
- Mos tushunchaga ta'rif berish orqali o'tilgan mavzularni yodiga tushiradi
- Nutqi rivojlanadi
- Jamoa bilan ishlash ko'nikmasi rivojlanadi
- Kommunikativlik,koalaboratsiya shakllanadi.

Quyida organik kimyo fanida alkadiyenlar mavzusiga " Assotsiatsiyalar metodi" dan namuna berilgan:

Assotsiatsiyalar metodi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Maqsudov A. A., "Kimyo fanlari metodikasi"
2. Xojayev R. R., "Kimyo o'qitish metodikasi"
3. G'ulomov M. X., "Kimyo darslarini tashkil etish metodikasi"
4. Sirojiddinov M. B., "Kimyo o'qitish metodlari va ularning amaliyotdagi qo'llanilishi"
5. Rakhimov A. M., "Kimyo va biologiya fani metodikasi"
6. Mamatov Z. Z., "Kimyo fanini o'qitishdagi innovatsion metodlar"
7. Shokirov K. B., "Kimyo fani darslarida yangi pedagogik texnologiyalar"

